
TOSHLOQ TUMANIDA OBODONLASHTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish hamda mahallalarni toza va ozoda saqlash, qolaversa, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bugun mahallalarda tozalash va obodonlashtirish ishlarini olib borish maqsadida "Do'stlik" MFYda hashar tashkil etildi.

Mahalla hududida joylashgan ko'p qavatli uylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari olib borildi.

Hududda obodonlashtirish ishlari bajarilib, chiqindilar maxsus texnikalar yordamida olib chiqildi.

Shuningdek, daraxt ko'chatlarini ekish ishlari ham uyushqoqlik bilan tashkil etildi.

2023-11-06 07:50:54